

BOLALARING JAMIYATGA IJTIMOIY MOSLASHUVI JARAYONIGA
TA'SIR KO'RSATUVCHI OMILLAR

Toshboyeva Dilfuza Rashid qizi

Samarqand Davlat Universiteti

Kattaqo'rg'on filiali Ijtimoiy ish yo'nalishi talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11118278>

Annotatsiya. Ushbu maqolada bolalarning jamiyatga ijobiy moslashish jarayoni va unga ta'sir ko'rsatuvchi ijtimoiy omillar, bolaning to'liq normal rivojlanishi hamda jamiyatga ijtimoiy muhitga adaptatsiya jarayoni, tahlil qilindi.

Kalit so'zlar: bola, ijtimoiy, pedagogik, psixologik, reabilitatsiya, ijtimoiy himoya, ijtimoiy moslashuv, adabtatsiya, me'yor, ijtimoiy muhit, sotsalizatsiya, individ, shaxs, sotsium.

**FACTORS AFFECTING THE PROCESS OF SOCIAL ADAPTATION OF CHILDREN
TO SOCIETY**

Abstract. In this article, the process of children's positive adaptation to society and the social factors affecting it, the child's full normal development and the process of adaptation to the social environment in society were analyzed.

Key words: child, social, pedagogical, psychological, rehabilitation, social protection, social adaptation, adaptation, norm, social environment, socialization, individual, person, society.

**ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА ПРОЦЕСС СОЦИАЛЬНОЙ АДАПТАЦИИ ДЕТЕЙ К
ОБЩЕСТВУ**

Аннотация. В данной статье анализируются процесс положительной адаптации детей к обществу и влияющие на него социальные факторы, полноценное нормальное развитие ребенка и процесс адаптации к социальной среде в обществе.

Ключевые слова: ребенок, социальная, педагогическая, психологическая, реабилитация, социальная защита, социальная адаптация, адаптация, норма, социальная среда, социализация, индивид, личность, общество.

Ijtimoiylashuv insonning butun hayoti davomida kechadigan ko'p qirrali jarayondir. U ayniqsa bolalik va yoshlik davrida nihoyatda jadallik bilan kechadi. Chunki, aynan bolalikda asosiy ijtimoiy me'yorlar o'zlashtiriladi. Bola ijtimoiylashuvida sotsium muhim ahamiyatga ega.

Agar bola tug'ilgandan keyin asosan oilada rivojlansa, uning keyingi rivojlanishi yangi va yangi muhitlar-maktabgacha ta'lim muassasalari, muktab, muktabdan tashqari tarbiya muassasalari, turli ko'ngilochar maskanlarda kechadi. Bola qanchalik ko'p muhitlarni o'zlashtirsa,

u shunchalik keng doira hududini egallashga harakat qiladi. Bola doimo o‘zi uchun qulay bo‘lgan uni yaxshi tushunadigan, unga hurmat bilan munosabatda bo‘ladigan muhitni izlashga urinadi.

Shuning uchun u bir muhitdan boshqa muhitga ko‘chib yuradi. Muhit bolani shakllantirishda, uning ijtimoiy tajriba to‘plashida ijtimoiylashuv jarayoni uchun muhim ahamiyata ega. Muhitning insonga munosabatini insonning yurish-turishi, uning talablariga qanchalik javob berishiga qarab aniqlasa bo‘ladi.

Insonning xulq-atvori uning jamiyatda tutgan o‘rni bilan belgilanadi. Bolaning xulq-atvor mexanizmlarini o‘zlashtirishi unga ijtimoiy munosabatlarga muvaffaqiyatli moslashuvini ta‘minlaydi. Ijtimoiy moslashuv deganda shaxsning ijtimoiy muhit sharoitlariga ko‘nikishi tushuniladi. Ijtimoiy moslashuv bolaning muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvining sharti va natijasi hisoblanadi. Bu asosan uch yo‘nalishda olib boriladi: faoliyat, muomala va anglash. Faoliyat sohasida bolada faoliyat turlarining kengayishi, faoliyatning zaruriy shakl va vositalarini qo‘lga kiritishi, muomala sohasida muomala doirasining kengayishi, uning mazmunining chuqurlashishi, jamiyatda qabul qilingan xulq-atvor me‘yorlarini o‘zlashtirish sodir bo‘ladi. Anglash sohasida o‘z —menli obrazini shakllantirish, o‘zining ijtimoiy mansublik va ijtimoiy o‘rnini anglash ro‘y beradi. Bu jarayonlarning barchasini tarbiya tartibga soladi. So‘nggi yillarda pedagogika va boshqa fanlarda ijtimoiylashuv hamda tarbiya tushunchalarining o‘zaro munosabati keng muhokama qilib kelinmoqda. Ba‘zi mualliflar tarbiyani ijtimoiylashuv bilan almashtirishga harakat qilishmoqda. Boshqalari tarbiyani bola ijtimoiylashuvining bir qismi sifatida o‘rganishadi.

Ayrim olimlar esa ijtimoiylashuv deganda fuqaroviylar axloqiy tarbiyani tushunishadi. talim-tarbiya jarayonlariga bog’liq.

Hozirgi paytda bola rivojlanishiga ekologik muhit, atmosferaning buzilishi kabi tashqi omillar ham salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Buning natijasida jismoniy nuqsonli bo‘lib tug‘ilayogan bolalar soni ko‘paymoqda. Bunday bolalarning muomalaga kirishishi va faoliyat yuritishi nihoyatda og‘ir kechadi. Shuning uchun ularga o‘qitishning yangi metodlari joriy qilinmoqda va bu metodlar ularning aqliy rivojlanishga erishishlariga yordam beradi. Jismoniy nuqsonli bolalar bilan maxsus pedagoglar shug‘ullanishadi. Bu bolalar o‘z tengqurlari bilan muomalaga kirishganlarida jiddiy muammolarga duch kelishadi. Bu esa ularning jamiyatga integratsiyalashuvlarini qiyinlashtiradi. Shuning uchun bunday bolalar bilan ijtimoiy pedagogik ish olib borishning asosiy maqsadi bolaga tashqi olam bilan aloqa qilish kanallarini ochishdir.

Bola rivojlanishida irsiyat ahamiyati haqida gapirganda irsiy tabiatga ega bo‘lgan bir qator kasallik va patologiyalarning mavjudligini e‘tiborga olish lozim. Masalan, psixik buzilishlar (shizofreniya), qon kasalligi (gemofiliya), endokrin buzilishlar (pakanalik). Ota-onalar

alkogolizmi va giyohvandligi nasl uchun salbiy ta'sir ko'rsatadi. Tashqi omillar bo'lgan atmosferaning, suvning ifloslanishi, ekologiyaning buzilishi ham bola rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Jismoniy kamchilikli (ko'rlar, karlar, tayanch-harakatlantiruvchi apparatning buzilishi va b) bolalar tug'ilishi ko'paymoqda. Shunday bolalar uchun muloqotda bo'lish jamiyatga —kirish|| ancha murakkabdir. Bular bilan maxsus tayyorlangan pedagoglar shug'ullanadi. Ijtimoiy omillar. Inson bo'lib etishish uchun faqatgina biologik irsiyatning o'zi kifoya emas. Inson faqat sotsiolizatsiya jarayonida, ya'ni muloqotda, boshqa insonlar bilan o'zaro ta'sirda shaxs bo'lib etishadi. Inson jamiyatidan tashqarida ma'naviy, ijtimoiy, psixik rivojlanishi sodir bo'la olmaydi. Bu fikrni barchaga ma'lum hollar, ya'ni inson bolasi hayvonlar orasida o'sgani yanada mustahkamlaydi. Bola ijtimoiylashuvi – uni ijtimoiy hayotga tortish jarayonidir. U mazkur jamiyatga xos bo'lgan bilim, qadriyatlar, o'zini tutish namunalari tizimii o'zlashtirishda mujassamlashgan. Bolaning ijtimoiy moslashuvi – uni ijtimoiy muhit shart-sharoitlariga faol moslashuvi jarayoni, bolaning ijtimoiy muhit bilan o'zaro ta'siri turi. Bolaning ijtimoiy moslasha olmasligi - ijtimoiy muhit shart-sharoitlariga muvaffaqiyatli moslashishga qarshilik qiladigan undagi ijtimoiy ahamiyatga ega xislatlarning yo'qolib ketishi yoki shakllanmasligi jarayoni.

Ijtimoiy pedagogikada shaxs — tarbiya ob'ektidir. Bola bilan ma'lum rolda o'zini tutish mexanizmi unga ijtimoiy munosabatlarga muvaffaqiyatli kirishib ketishni ta'minlaydi, har bir u uchun yangi bo'lgan vaziyatga moslashib ketish imkoniyatini beradi. Bu individni ijtimoiy muhit shart-sharoitiga moslashib ketishi jarayoni ijtimoiy moslashuv deb ataladi.

Sotsializatsiya jarayonida, xususan bolaning ijtimoiy moslashuvida insonning «hammadek» bo'lishi ob'ektiv ehtiyoji namoyon bo'ladi. Biroq shu bilan parallel ravishda bolada - boshqa ehtiyoj - o'zini o'z individualligini ko'rsatish ehtiyoji shakllanadi. Bola uni ifodalash usul va vositalarini qidira, namoyon qila boshlaydi, natijada uning individuallashtirilishi sodir bo'ladi.

Bola individuallashtirilishi shunda ifodalanadiki, u yoki bu ijtimoiy ahamiyatga ega shaxs xislat va xususiyatlari aynan shu insonga mansub shaklda namoyon etadi. Ijtimoiy o'zini tutish esa boshqa insonlar intizomiga tashqi tomondan o'xhashiga qaramay notakror, individuallik qirralarni egallyaydi. Bolaning ijtimoiy rivojlanishi shunday qilib ikki yo'naliш bo'yicha sodir bo'ladi: sotsializatsiya (ijtimoiy madaniy tajribani egallah) va individuallashtirish (mustaqil bo'lish). Agar bolani sotsiumga kiritishda sotsializatsiya va integratsiya jarayonlari orasida muvozanat belgilansa, ya'ni bola, bir tomondan, mazkur jamiyatda o'zlashtirilgan me'yor va qoidalarni o'zlashtirsa, boshqa tomondan unga o'z ahamiyatli «yumumiyligi»ni individualligini qo'shsa, sotsiumda bolaning integratsiyasi sodir bo'ladi.

Agar bolaning guruhga moslashish jarayoni sodir bo‘lmasa, unda o‘ziga ishonmaslik, tortinchoqlik, tashabbussizlik sodir bo‘lishi mumkin, bu shaxsni jiddiy deformatsiyaga olib kelishi mumkin.

Agar bola moslashuv fazasidan o‘ta olsa va atrofdagilarga o‘z individual farqlarini ko‘rsatishni boshlasa, atrofdagilar esa uning individualizmini jamiyat me‘yorlariga to‘g‘ri kelmaydi deb hisoblasa, unda bolada negativlik, gumonsirashlik, agressivlik, o‘ziga yuqori baho berish rivojlanadi. Bolalar, ayollarning moslashuviga mo’ljallangan imkoniyati cheklangan, maxsus yordamga muhtoj bolalar va ularning oilalariga, xatar guruhiга kiruvchi va noqobil oila farzandlariga psixologik hamda jismoniy imkoniyati cheklangan bolalarni da’volash va ta’lim sohasida ko‘mak ko‘rsatish orqali xizmat ko‘rsatadi. RBIMM shuningdek, yordamga muhtoj bolalarga ijtimoy ko‘makni ta’minalashda milliy institutlar faoliyatini muvofiqlashtiradi.

O‘zbekiston Respublikasi bo‘ylab himoyaga muhtoj bolalarga yordam ko‘rsatish qamrovini kengaytirish maqsadida majmuaviy tibbiy, ijtimoiy, pedagogik, psixologik jihatdan qo’llab-quvvatlash uchun O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining RBIMM faoliyati ko‘lamini respublika bo‘ylab kengaytirish yuzasidan bir necha qarorlari qabul qilindi.

Respublika bolalar ijtimoiy moslashuvi markazi Farg’ona, Samarqand, Qarshi mintaqaviy filiallarining bosqichma – bosqich bunyod etilishi mamlakatning chekka hududlarida ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalar va bolalarni ham qamrab olgan holda manzilli yordam ko‘rsatish imkonini berdi. Xatar guruhiга kiruvchi, aqliy rivojlanishida nuqsonlari bo’lgan va surunkali kasalliklarga ega ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarning muammolarini o’rganish Respublika bolalar ijtimoiy moslashuvi markazi faoliyatidagi ustivor yo’nalishlardan biridir.

Bolaning psixojismoniy xususiyatlari o’rganilgandan so’nggina yakka tartibda bolalar uchun kompleks ish xaritasi tuziladi. Bu yerda bolaning reabilitatsiyasi jarayoni tibbiy klinikalarda bo’lgani kabi dori – darmonlar bilan emas, balki maxsus mashg’ulotlar, trening, uyin, davolovchi jismoniy tarbiya mashqlarini o‘zida jo etgan korreksion – reabilitatsion xizmatlar yordamida olib boriladi. RBIMMning mintaqaviy filialida olib boriladigan pedagogik, tibbiy, psixologik, huquqiy va moddiy ko‘mak turlari bolalarning sog’lomlashtirilishi, ma’naviy – axloqiy rivojlanishishiga erishish, jismoniy imkoniyatlari cheklanganligi sababli e’tibor markazdan chetda qolmasligi, o’zlarini jamiyatning tulaqonli a’zosi sifatida his qilishlari uchun sharoitlar yaratishga qaratilgandir. Tashkil etilgandan buyon Markazda 11000dan ortiq ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalar va ularning oilalariga ijtimoiy moslashuvida ko‘mak ko‘rsatdi.

Shulardan 5000dan ortiq nogiron bolalarga Markazning imkoniyati cheklangan bolalar bilan ishlash, imkoniyati cheklangan bolalarni ijtimoiy huquqiy himoyalash, ijtimoiy ish bo'limi hamda axborot-konsalting xizmati xodimlari tomonidan majmuaviy amaliy yordam ko'rsatildi.

Zamon shiddat bilan rivojlanib borayotgan vaqtta o'sib kelayotgan yosh avlodni turli xatarlar va salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi bolalarning ijtimoiy moslashuviga har qanday tarzda ta'sir ko'rsatishi sabab oqibatlarini oldini olish, ijtimoiy hayotga moslashuvi qiyint kechayotgan bolalarning muammolarini o'rganish hamda ularning turmush tarzini yaxshilash har bir ota ona pedagog va shaxslarning diqqat markazida turmog'i lozim.

Zero kelajak yoshlari qoldida yoshlarni barkamol shijoatli va komil bo'lib voyaga yetishi va tug'ilib o'sgan vataniga foyda keltiradigan shaxs bo'lib voyaga yetishi uchun soglon ijtimoiy manaviy muhit yaratish ular bilan individual shug'llanish ularning jamiyatga moslashuvi va hayotda oz ornini qiynalmay topa olishini taminlashga qoyilgan qadamdir.

REFERENCES

1. Ijtimoiy moslashuv markazlarida ijtimoiy ish o'quv qo'llanma Kattaqorg'on 2024.
2. Bolalarning ijtimoiy moslashuvi o'quv qo'llanma Namangan 2022.
3. Thom Garfat, Leon C. Fulcher Child and Youth Care in Practice. – Cape Town, South Africa. 2012.
4. Kondrateva YA. V. K 64 Problemy sotsialnoy raboty s molodejyu: uchebnik. – SPb.: Sankt-Peterburgskiy universitet upravleniya i ekonomiki, 2011. – 278 s.
5. Ganieva M.X. Osnovy sotsialnoy raboty. Uchebnoe posobie. – Tashkent: CHASHMAPRINT, 2009. (112 s.